Ukraina kartoshkalari O‘zbekistonda yetishtiriladi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida Ukraina qishloq xo‘jaligi Milliy Fanlar akademiyasi a’zosi Anatoliy Bondarchuk, akademiklar Nikolay Roik hamda Igor Gritsinyak ishtirokida mamlakatlarimizning qishloq ho‘jaligi sohasidagi ilmiy hamkorligini yanada kengaytirishga bag‘ishlangan uchrashuv bo‘lib o‘tdi, deya xabar qildi Fanlar akademiyasi matbuot xizmati.

Ukraina kartoshka va soya yetishtirish, eksport qilishda dunyodagi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda sohaga chuqur ilmiy yondashuv yo‘lga qo‘yilgan. Har bir hudud va hududiy iqlim sharoitida yetishtiriladigan kartoshka, soya navlarining davlat reyestri ishlab chiqilgan. 2017 yilda respublikada 21.9 million tonna kartoshka hosili yig‘ib olindi. E’tiborlisi, mazkur xirmonning 98 foizi aholi tomorqa ho‘jaliklarida yetishtirildi.

Mamlakatimizda tomorqa xo‘jaligini ilmiy-innovatsion rivojlantirishga yo‘naltirilgan sa’y–harakatlar sohada katta muvaffaqiyatlarga erishgan davlatlar tajribasini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Olimlarimiz Ukrainaning qora tuprog‘i va iqlimi sharoitida o‘stiriladigan “Bellaroza”, “Dnepryanka”, “Rivyera”, “Ariel”, “Rozara” kabi serhosil, ertapishar, mazali, tovar ko‘rinishi chiroyli, ozuqa qiymati yuqori kartoshka navlarini yurtimiz iqlim sharoitiga moslashtirish, fermer va tomorqa xo‘jaliklarida ekilishini keng yo‘lga qo‘yish, urug‘chilik bazasini yaratish bo‘yicha hamkorlikda tadqiqotlar olib borishni rejalashtirmoqda.

Uchrashuvda yuqoridagi masalalar muhokama qilinib, O‘zbekiston va Ukraina qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, hamkorlik yo‘nalishlari va istiqbollari tahlil etildi. Kartoshka urug‘chiligini tashkil etish va hosildorligini oshirish, soya yetishtirish texnologiyalari hamda baliqchilik sohasida kelgusida amalga oshiriladigan ishlar belgilab olindi.

Ilmiy muzokaralardan so‘ng mehmonlar O‘zR Fanlar akademiyasi xodimlari, FA Qishloq xo‘jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi va Toshkent viloyati hokimligi vakillari ishtirokida Toshkent viloyatidagi fermer va tomorqa xo‘jaliklarida bo‘lib, dehqonlar bilan bevosita suhbatlashdi.

http://www.mahalladosh.uz/post?id=2402